

Maxmatqobil Obilqosimov
Jizzax politexnika instituti,
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası
katta o‘qituvchisi

GLOBALLASHUV VA YOSHLAR: MA’NAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASH STRATEGIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqola globallashuv jarayonida yoshlar orasida yuzaga keladigan ma’naviy tahdidlarga qarshi kurash strategiyalarini tahlil qiladi. Maqolada zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhit sharoitida yoshlarning ma’naviy qadriyatlarini saqlash va mustahkamlash usullari, ularni salbiy ta’sirlardan himoya qilish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, globallashuvning yoshlar ongiga ta’siri hamda ularni ma’naviy jihatdan barqaror va tanqidiy fikrlashga o‘rgatish bo‘yicha samarali strategiyalar va amaliy tavsiyalar taqdim etiladi. Maqola yoshlarga ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy sharoitda ma’naviy barqarorlikni ta’minlash uchun ilmiy va amaliy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi..

Kalit so‘zlar: globallashuv, integratsiya, ma’naviyat, Yangi O‘zbekiston, yoshlar, ma’naviy tahdid, ommaviy madaniyat, ta’lim-tarbiya.

GLOBALISATION AND YOUTH: STRATEGIES FOR COMBATING SPIRITUAL THREATS

Makhmatkobil Obilkosimov
Jizzakh Polytechnic Institute,
Senior Lecturer, Department of “Social Sciences”

Annotation. This article analyzes strategies for combating spiritual threats that arise among young people in the process of globalization. The article considers methods for preserving and strengthening the spiritual values of young people in the conditions of the modern socio-cultural environment, mechanisms for protecting them from negative influences. It also presents effective strategies and practical recommendations for the impact of globalization on the minds of young people and teaching them to be spiritually stable and critical thinking. The article

includes scientific and practical approaches to ensuring spiritual stability in the process of education and upbringing of young people in modern conditions.

Keywords: globalization, integration, spirituality, New Uzbekistan, youth, spiritual threat, mass culture, education.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Globallashuv –bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”[1].

Bizga ma’lumki, bugungi globallashuv jarayonida dunyoda g‘oyaviy, mafkuraviy kurash kechmoqda. YA’ni dunyoni g‘oyaviy jihatdan bo‘lib olishga bo‘lgan urinish ketmoqda. Albatta, bunday vaziyatda mamlakat barqarorligini, farovonligini, tinchligini va kelajagini ta’minlash har birimizning yuksak burchimizdir. Ayniqsa, yoshlarimizning bu jarayonda faol ishtirok etishlari davr talabidir. Bugungi kunda Respublikamiz aholisining 65 foizini yoshlar tashkil etib, bu yoshlar bugungi kunda jamiyatda olib borilayotgan islohotlarda faol ishtirok etishlari, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi yo‘lida munosib xizmat qilishlari katta ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq yoshlarga, ularning jamiyatdagi faoliyatiga katta e’tiborni qaratib, ular uchun barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratib, xamisha kelajakda ma’naviy barkamol va jismoniy sog‘lom bo‘lishlarini ta’kidlamoqda. “Yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod deganda, biz O‘zbekistonning buyuk kelajagini nazarda tutamiz”[2].

Shunday ekan, bugungi globallashuv jarayonida yoshlarimizni turli buzg‘unchi, yot g‘oyalardan asrash, ularni ma’naviy barkamol va jismonan sog‘lom qilib voyaga yetkazish zaruriyatga aylanayotir. Yosh avlodni tarbiyalash-xalqni tarbiyalash deganidir. Xalqimizga xos bo‘lgan mehr-oqibat, mehr-shavqat, qadr-qimmat, odamgarchilik, mehmondo‘stlik, o‘zaro hurmat kabi tushunchalar hamma xalqlarda ham uchrayvermaydi. Ayni paytda, boy qadriyatlarimiz va yuksak ma’naviyatimizga taovuzkorona harakatlar bo‘layotganligini ham esdan chiqarmasligimiz lozim. Shulardan biri “ommaviy madaniyat”dir. Shu sababli

bugungi kunda ba'zi yoshlarimizning zamonaviylik, moda yoki "zamon talabi" deb tushunayotgan, bizning mentalitetimiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va dinimizga zid bo'lgan bunday qarashlarga qarshi kurashish ayni muddao. Buning oldini olish, eng avvalo uning zararli oqibatlarini milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga mutlaqo zid ekanligini yoshlarimizga tushuntirishimiz lozimdir.

Birgina, oiladagi o'zaro hurmat, ota-onaga sharqona va milliy qadriyatlar asosida hurmatda bo'lish, ayollarga nisbatan ham milliy qadriyatlarimiz asosida munosabatda bo'lish, oilada farzand tarbiyasida milliy qadriyatlarimizga mos holda tarbiya va ta'lim olib borish, go'daklik chog'idanoq dastlab, ya'ni ularga ism qo'yishdan tortib, to o'zini anglagunga qadar boy ma'naviy merosimiz, xalq og'zaki ijodimiz, sharqona qadriyatlarimiz, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan o'gitlar asosida tarbiyaviy ishlarni olib borish talab etiladi. Yoshlikdan ularning qalbida vatanparvarlik, milliy g'urur, insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, ota-onaga hurmat va izzat ko'rsatish va boshqa insoniy fazilatlarni singdirib borishimiz, bularning barchasi bugungi kunda yoshlarimizda ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda zamin bo'lib xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Shunday ekan, kelajagimiz vorisi hisoblanmish yosh avlodni avaylab-asrash, ularda milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga hurmat xissini shakllantirish har birimizga yuksak mas'uliyatni yuklaydi. Shuningdek, 2018 yil 30 iyun kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigida: "Yoshlarimizning hayotiy muammolariga yanada ko'proq e'tibor qaratish, ularga mos bo'lgan zamonaviy ish o'rinlarini ko'paytirish, ezgu intilish va tashabbuslari, innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash, yosh avlodimizning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash bundan buyon ham barcha darajadagi davlat idoralarining eng asosiy, hal qiluvchi vazifasi bo'lib qoladi"[3]

Demak, yuksak ma'naviyat mustaqilligimizni mustahkamlashda, yoshlarimizning haqiqiy Vatan o'g'lonlari bo'lib voyaga yetishlarida va boshqa jihatlarida bosh omil bo'lib xisoblanar ekan, bugungi kunda yoshlarimizongiga qadimiy boy ma'naviy merosimizni singdirishimiz va albatta, bugungi

globallashuv jarayonida milliy ma'naviyatimizga tahdid solayotgan buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashda muhim "qurol" bo'lib xizmat qiladi. Chunki, ma'naviy tahdid deganda avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion hurujlarni Bugungi kunda yot mafkuralar mafkuraviy kurashlarning zamonaviylashtirilgan uslublari: axborot maydonini egallab olish; mafkuraviy diversiya, mafkuraviy infiltratsiya, mafkuraviy qo'poruvchilik va boshqa xarakatlarini qo'llash orqali xalqimizda O'zbekistonning buyuk kelajagiga ishonchsizlik uyg'otishga, davlat siyosatini obro'sizlantirishga, odamlarning o'zini Vatan, millat himoyasidan chetga tortishga, loqaydligiga erishishga intiladilar.

Har qanday jamiyat bunday makkor tahdidlarni yengish uchun o'zida ogohlik, mafkuraviy havfsizlik, to'kislik, jangovorlik, safarbarlik, umummilliy birlik kabi ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi kerak. Buning uchun milliy mafkuramizning yot mafkuralarga qarshi kurash uslublari, jumladan, buzg'unchi g'oyalar mohiyatini fosh qilishga qaratilgan targ'ibot, mafkuraviy monitoring va tahdidlar mohiyatini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish g'oyasini hamma joyda foydalanish taqozo qilinadi.

Mamlakatda barqaror rivojlanishning muhim shartlaridan biri bu g'oyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iboratdir. Bu borada kishilarimizda yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Albatta, mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g'oyani zo'r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oq-qora ajratish, zararli g'oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo'lish, mustaqil fikrga ega bo'lish kabi xususiyatlarni shakllantirish demakdir. Demak, bugungi kunda jamiyatga yangicha fikrlaydigan, demokratik qadriyatlar ruhida tarbiyalangan mamlakat kelajagini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq holda ko'ra oladigan yoshlarning dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishishlariga ahamiyat qaratmoq lozim. Qadimdan eng buyuk boylik

bo‘lgan yuksak ma’naviyatning ma’no-mazmuni, inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati keng qamrov ila tahlil qilinsa, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirishga samarali tarzda xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi globallashuv jarayonida yoshlarimizni yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalashimiz, ularning ongida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi g‘oyasiga to‘siq bo‘ladigan buzg‘unchi, yot g‘oyalarga qarshi g‘oyaviy immunitetni shakllantirishimiz, yoshlarimizning jahondagi hech bir yoshlardan iqtidor, qobiliyat, intellektual, dunyoqarash jihatidan kam emasligini, bugungi kunda ma’naviy jasorat tuyg‘usini shakllantirish, yoshlarimiz o‘z iqtidori, qobiliyati bilan dunyoga chiqayotganligini doimiy ravishda eslatib turishimiz lozim deb o‘ylaymiz. Agar tinchlik-osoyishtalik bo‘lmasa, mehr-oqibat bo‘lmasa, biz orzu qilgan va intilayotgan erkin va farovon hayotni qurib bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat” Ikkinchi nashr. 2011 y.

1. Karimov I.A. Yoshlarimiz-xalqimizning ishonchi va tayanchi. T.: “Ma’naviyat” 2006 y.

2. “Aziz va yagonamsan, jonajon O‘zbekiston”. T.: “Ma’naviyat” 2018 y; b-90.

3. Otamuratov S., "Globallashuv va milliy ma’naviy xavfsizlik", Toshkent, 2013.

4. Tajibaev, M. A. (2024). THE SIGNIFICANCE OF THE LAWS OF DIALECTIC IN SCIENTIFIC KNOWLEDGE. Экономика и социум, (4-2 (119)), 508-511.

5. Tajibayev, M. A. (2024). O‘zini-o‘zi tashkillashtiruvchi jarayonlarni tadqiq etishning yaxlit metodologiyasi. Экономика и социум, (1 (116)), 549-552.

6. Тожибоев, М. А. КОМИЛ ИНСОННИ ВОЯГА ЕТКАЗИШДА МАФКУРАВИЙ ТАРБИЯ ОМИЛЛАРИ.